

INGLIZ TILI O'QUV JARAYONINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA INTELLEKTUAL O'YINLARNING ROLI

Ruxshona Husanova Rustam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga va samarali o'qitishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Bu o'z o'zidan chet tli darslarini, xususan ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli xil zamonaviy innovatsion metodlardan, o'quvchilarning diqqatini qaratuvchi turli intellektual va interfaol o'yinlardan foydalanishni ham taqazo etadi. Til o'rgatish darslari davomida bunday metodlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshiradi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'yinlar orqali o'rganish metodlari o'quv jarayonini faollashtirish va jadallashtirishdagi tutgan o'rni haqida muhokama olib boriladi.

Kalit so'zlar: intellektual o'yinlar, chet tili, o'yin metodi, Last Man Standing (oxirgi qolgan odam), Charades, Categories (kategoriyalar).

THE ROLE OF INTELLECTUAL GAMES IN ACTIVATING AND ACCELERATING THE ENGLISH LANGUAGE LEARNING PROCESS

Ruxshona Khusanova Rustam qizi

Jizzakh branch of National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek

ABSTRACT

Today, the need to learn and teaching effectively foreign languages is increasing day by day. This in itself means making foreign teaching foreign language lessons, especially English, interesting, that is using various intellectual and interactive games that attract the attention of students. The use of such methods during language training classes increases the student's interest and passion for learning science. This article discuss the role of methods of learning English through games in the activation and acceleration of the educational process.

Keywords: intellectual games, foreign language, game method, Last Man Standing, Charades, Categories.

РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИГР В АКТИВИЗАЦИИ И УСКОРЕНИИ ПРОЦЕССА ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Рухшона Хусанова Рустам кизи

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

АННОТАЦИЯ

Сегодня необходимость изучения и эффективного преподавания иностранных языков возрастает с каждым днем. Этому само по себе требует сделать уроки иностранного языка, особенно английского, интересными, то есть используют различные современные инновационные методы, различные интеллектуальные и интерактивные игры, концентрирующие внимание учащихся. Использование таких методов на занятиях по преподаванию языка повышает интерес и страсть ученика к изучению науки. В данной статье.

Ключевые слова: интеллектуальные игры, иностранный язык, игровой метод, Last man standing (последний человек ушел), Charades, Categories(категории).

So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘rganish juda muhimligi tufayli nafaqat oliy ta’lim muassasalarida balki, maktablarda va hattoki maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘rgatilmoqda. Nima uchun bunday degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Negaki, ingliz tili-jahon tili ya’ni dunyodagi eng keng tarqalgan til hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tilini o‘rganish sizga ishga joylashishga yordam beradi hamda yangi odamlar bilan tanishishga yordam beradi chunki, ingliz tili 53 ta mamlakatning rasmiy tili hisoblanadi. Bundan tashqari, ingliz tili- internet tilidir. Internetdagi tarkibning yarmidan ko‘pi ingliz tilida yozilgan.qo‘srimcha tarzda shuni aytish joizki, ingliz tili bilan siz butun dunyoda o‘qishingiz mumkin chunki, juda ko‘p mamlakatlar ingliz tilida gaplashganligi bois, butun dunyoda ingliz tilida dasturlarni taklif qiladigan minglab maktab va universitetlar mavjud (**1**). Shunday ekan ingliz tilini mukammal o‘rganish lozim. Bu jarayonda til o‘rgatish darslarida qiziqarli usullardan va o‘yin metodlaridan foydalanish ham muhim ahmiyat kasb etadi.Aks holda, tilni o‘rganish va o‘qitish, o‘quvchilarining diqqatini jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanib qolishi mumkin (**2**). Ayniqsa, maktabgacha yoshdagiyoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin hisoblanadi. Maktabda o‘qish davrida o‘yin yo‘qolmaydi, aksincha o‘rganish bilan birga yon, ikkinchi darajali faoliyat sifatida saqlanib qoladi (**3**). Shuning bilan birga sinfda o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat va jamoa bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanib boradi. Qolaversa, o‘yinlardan ingliz tili darslarida

foydalinish bolalarda fanni o'rganishga ishtiyogi va qiziqishini orttiradi, barcha bolalarni aktiv bo'lishga undaydi. A.S Makarenkoning quyidagi fikri o'qituvchi faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi: "O'yin bola hayotida muhim ahmiyatga ega. Bola qanday o'yinda bo'lsa, u katta bo'lganida ko'p jihatdan shunday ishlaydi (4). Shunday ekan ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish ancha maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o'yin jarayonida bolalar qizg'in bilish jarayonini amalga oshiradi, bilimlarning kata hajmini o'zlashtiradi. Shuningdek, ingliz tilini o'rganishda o'yinlarning quyidagi foydali tomonlari mavjud: yoqimli mashg'ulot foydalisi bilan birga keladi, ya'ni bu mактабдаги dars emas-zerikarli matnlarni o'qib, sabablarini tushunmasdan fe'lni tuslash talab etilmaydi. O'yinlarda esa aniq maqsadlar bor. Shuning bilan birga yangi so'zlarni o'rgatadi ya'ni dialoglarda hamisha yangi so'zlar uchraydi natijada bu so'zlar tez-tez takrorlangani uchun va aynan o'sha onda, o'sha vaziyatda kerak bo'lganligi sababli ham so'zlar osongina esda qoladi. Yana bir foydasdi shundaki, o'yin interfaol vositadir. Misol uchun, film yoki serialdan farqli o'laroq, o'yinlarda istasangiz-istamasangiz boshqa personajlar bilan birgalikda harakat qilasiz: dialoglarda kerakli qatorni tanlaysiz. Biror harakatni amalga oshirib, shu onning o'zidayoq javob harakati olasiz, shu qatori verbal-nutq vositasidan ham foydalanasiz. Keyingi foydali jihatni bu o'yinlarda xilma-xillikning mavjudligidir ya'ni o'yinlarning syujetlari turlicha: o'rta asrdagi ziddiyatlar, keljakdagi jangler, detektiv tekshiruvlar, kriminal tortishuvlar... Ularning tili ham turfa: savodsiz dehqonlar tilidan tortib o'smirlarning ko'cha tiligacha (5). Ingliz tilini o'rgatish darslari davomida o'yinlardan foydalishimizning yana bir asosiy sabablaridan biri shundaki, biz o'yin orqali o'quvchining diqqatini uzoqroq muddatga jalb qilishimiz mumkin. Negaki, psixolog olimlarning aniqlashicha, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini uzog'i bilan 10-12 daqiqa gacha ushlab turish ya'ni jalb qilish mumkin.

Ingliz tili darslarining samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar turiga kiruvchi quyidagi o'yinlar haqida aytib o'tmoqchiman. Bulardan birinchisi **Last Man Standing** (oxirgi qolgan odam) deb ataladi. Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin o'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beriladi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlarini so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan, things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir bironta inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan

so‘zlarni qayta aytsa yoki berilgan vaqt ichida umuman so‘z aytmasa, ular o‘yindan chiqadi va o‘yinni o‘tirgan holda kuzatishadi. Havotir olmang, ular baribir o‘rganishayotgam bo‘lishadi. Bu o‘yin o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, yangi so‘zlarni o‘rganishga va fikrlash qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Keyingi o‘yinimiz **Charades** nomi bilan mashhur. Charades o‘yini o‘quvchilaringiz sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqlarda juda qo‘l keladi. Ularni uyg‘oting va harakatlantiring! O‘quvchilar tanlashi uchun bir necha to‘rtburchak qilib qirqilgan qog‘ozlarga so‘zlar yozing. Fe’llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo‘lsada hamma o‘quvchilar biladigan so‘zlardan foydalanishingiz mumkin sinfni ikki jamoaga bo‘ling. Va har bir jamoadan bir o‘quvchi so‘z yozilgan qog‘ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o‘sha so‘zni topishi kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g‘olib hisoblanadi. Ingiliz tilini o‘ragatishida samarali deb hisoblanadigan navbatdagi o‘yinimiz **Categories** deb ataladi. O‘quvchilar bu o‘yinni bir marta o‘ynaganlaridan keyin har safar yana o‘ynashlarini iltimos qiladigan bo‘lib qolishadi! Yana bu o‘yin ortib qolgan daqiqalardan unumli foydalanish uchun ajoyib usul. Har bir o‘quvchingizga qog‘ozga 6ta ustun chizishlarini so‘rang. Siz kategoriya (so‘z uchun mavzu)ni oxirgi o‘tilgan mavzulardan tanlashingiz mumkin. Eng ko‘p qo‘llaniladigan kategoriylar oziq-ovqat, ismlar, shaharlar yoki davlatlar, mebellar yoki jihozlar, ish-harakat yoki kiyimlar hisoblanadi. Biror istalgan harfni tanlang va uni doskaga yozing. O‘sha haarf bilan boshlanuvchi so‘zlarni ustunlarga yozib chiqishlari uchun o‘quvchilaringizga biroz vaqt bering. Siz boshqa harflar bilan o‘ynni istalgancha qaytadan boshlashingiz mumkin (**6**). Yuqorida keltirilgan o‘yinlarning maqsadi o‘quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so‘zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir .

Xulosa qilib aytganda, pedagogika o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlash yanada takomillashtirishni taqazo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyalar bilan ta’lim berishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan o‘sib kelayotgan tillarning mutaxasisi bo‘lishi va buning negizida ular shu tillarda bemalol so‘zlasha olishlari maqsadga muvofiqli. Bu jarayonni osonlashtirish o‘yinlar ko‘makchi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1** Brandvik, M. L & Mc Knight, K.S. the English teacher’s survival Guide. Ready-to-use techniques and Materials for grades 7-12.
- 2** global-edu.uz
- 3** enjoybooks.ru
- 4** uz/post/ingliz tilini o‘rganish uchun-5-o‘yin
- 5** Низамова М(2017). Пути Развития Английского романа. Конца XXI века.
- 6** hasanboooy.uz/ ingliz tili darsalirida qiziqarli o‘yinlar.